

## O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 84 439,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,1%ga oshdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



#### Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da
<b>O'zbekiston Respublikasi<sup>1</sup></b>	<b>84 439,5</b>	<b>114,1</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 448,8	159,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	4 494,6	117,3
Buxoro	5 865,5	125,6
Jizzax	2 430,8	113,8
Qashqadaryo	5 031,5	115,1
Navoiy	4 083,3	119,9
Namangan	4 353,2	116,6
Samarqand	5 153,9	112,7
Surxondaryo	4 258,8	115,8
Sirdaryo	1 662,4	114,7
Toshkent	8 605,3	108,3
Farg'ona	5 727,5	118,2
Xorazm	4 575,9	131,8
Toshkent shahri	22 112,2	111,8

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


<sup>1</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi 71,8% ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 16,7%ga oshdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi yo'nalishi 19,3% ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 15%ga oshdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 8,9% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,6%ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	13 202,1	6 177,5	2 248,3
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	125,7	131,3	104,1
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	24 201,5	10 092,9	2 320,3
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	114,3	106,9	92,5
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	23 193,3	3,6	-
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	114,4	1 428,1	-

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 21 627,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 24,6%ga oshdi. Umumiy hajmdagi ulushi 25,6%ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 46,9%i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 8,9%ga oshib, 39 614,7 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,5% (23 196,9 mlrd so'm) bo'lib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,4%ga oshdi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-aprel oylari uchun)




Hududlar kesimida korxonalar turlari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, %da		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>O'zbekiston Respublikasi<sup>2</sup></b>	<b>21 627,9</b>	<b>39 614,7</b>	<b>23 196,9</b>	<b>124,6</b>	<b>108,9</b>	<b>114,4</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 804,4	1 738,5	905,9	822,2	100,9	107,8
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	653,8	2 447,1	1 393,7	181,7	109,5	112,6
Buxoro	1 413,2	2 446,6	2 005,7	249,2	104,7	113,5
Jizzax	394,0	1 295,8	741,0	162,3	107,9	107,1
Qashqadaryo	1 196,4	2 188,6	1 646,5	145,0	104,5	113,4
Navoiy	1 141,9	1 554,5	1 386,9	176,1	103,6	110,5
Namangan	533,7	1 771,2	2 048,3	185,9	105,4	116,0
Samarqand	972,6	3 473,2	708,1	202,3	103,4	96,6
Surxondaryo	521,9	2 176,2	1 560,7	171,2	108,3	114,6
Sirdaryo	318,7	1 015,9	327,8	143,6	109,4	109,5
Toshkent	2 058,5	3 470,6	3 076,2	108,3	108,0	108,6
Farg'ona	1 119,7	2 745,3	1 862,5	135,0	113,2	117,0
Xorazm	994,4	1 467,5	2 114,0	238,2	109,2	123,7
Toshkent shahri	6 868,9	11 823,7	3 419,6	101,3	115,0	126,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahrida (6,9 trln so'm), Toshkent viloyatida (2,1 trln so'm) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (1,8 trln so'm) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari ulushi



<sup>2</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

#### IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlari qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

#### Metama'lumotlar uchun havolalar:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi boshqarmasi

**Ijrochi:**  
D. Xidraliyeva  
71 203-80-00 (1163)

**Manzil:**

